

## MEN ZULFIYAXON IZDOSHIMAN



### Abstract:

Maqolada o'zbek xalqining sevimli shoirasi Zulfiya hayoti va ijodi yoritilgan.

### Key words:

she'r, so'z, adabiyot, muhabbat, Hamid Olimjon, aspirantura, „Hijron”, Zulfiya mukofoti

### Author of the article:

Irgasheva Shahlo  
Odil qizi

### Workspace (Education subject)

Buxoro davlat pedagogika  
instituti talabasi

Zulfiya - taniqli o'zbek shoirasi, journalist, tarjimon, davlat arbobi. Mashhur o'zbek shoirasi Zulfiya 1915-yil 1-martda Toshkent shahrida hunarmand-ishchilar oilasida tug'ilgan. U bolalik chog'idan she'rغا, so'zga, adabiyotga muhabbat paydo bo'lishida onasi Xadichabeginning beqiyos o'rın egallaganligini quyidagicha ta'riflaydi:

— Onamning qanchadan-qancha qo'shiq va afsonalarni bilishiga aqlimiz bovar qilmasdi. Bu sehrli afsona va dostonlar bizga benihoya huzur bag'ishlar, o'ziga rom qilib olar, har safar yangi jilva kasb etar edi. Hozirgidek charog'on davrda yashasa, onam yo shoira, yo olima bo'lardi. Shunga aminmanki, mo'jizalar yaratishga qodir, jahonni ko'zga keng ochuvchi, insonni go'zallik sari yetaklovchi so'zga shaydolik hissini mening qalbimda maktab ko'rмаган ana shu onam uyg'otgandi.

1922-1931 yillarda maktabda, keyin 1931-1934 yillarda ayollar o'quv yurtida ta'lim olgan. 1935-1938 yillarda Til va adabiyot instituti aspiranturasiga o'qishga kirib, jahon adabiyoti klassikasini, Sharq va G'arb falsafasini o'rganadi, Sharq she'riyatining turli shakllarini o'zlashtiradi. Uning bu sa'y-harakatlar, o'z ustidagi mashaqqatli mehnat tez orada o'zining ajoyib samarasini beradi. Uning "Hojar", "Erkin qiz", "Biz", "Men seni sevardim", "Ko'tarilish qo'shig'i" she'rlari butun xalq ko'nglidan joy oladi. Aspiranturada oqishi davrida Zulfiya o'qituvchi Hamid Olimjon bilan tanishadi va o'rtasidagi iliq munosabatlar muhabbatga aylanib, 1935-yilning 23-iyul kuni ikkisi oila quradi.

Zulfiya uzoq samarali ijodiy hayotini o'z xalqiga bag'ishlagan; uning ulug'vor mehnat yutuqlarini, ko'p asrlik axloqiy va oilaviy an'analarini kuylagan; ona Vatanni va oilaviy o'choqning qo'riqchi bo'lgan onani ulug'lagan. Uning badiiy dunyosi - mustaqil va suveren butun O'zbekiston mamlakati. Yorqin rassom, oddiy mehnatkash inson qalbining nozik bilimdoni, Sharq jamiyatni ayollarining teng huquqlari uchun jasur kurashchi, turli janrdagi asarlar, she'rlar, balladalar, elegiyalar, lirik she'rlar, hikoyalari, insholar, jurnalistik maqolalar, gazeta yozishmalari yaratgan shoir va yozuvchi.

Zulfiya birinchi she'rlari 1931 yilda, "Yangi yo'l" jurnali, "Qizil O'zbekiston", "Yosh leninchi" gazetalarida chop etilgan. 1932 yilda, 17 yoshga to'lganida, uning "Hayot varaqalari" nomli birinchi she'rlar to'plamni nashr etildi. To'plamdagagi she'rlar yoshlar, do'stlik, inson qalbining go'zalligiga bag'ishlangan. Keyin esa, uning she'rlari va hikoyalari turli nashrlarda va alohida kitoblarda chop etila boshlandi. 1938 yildan boshlab Zulfiya turli yirik nashriyotlarda ishlaydi, turli respublika va respublikalararo tashkilotlarga a'zo bo'ladi.

# *«Development of science» international conference*

1938-1941 yillarda Bolalar nashriyotida muharrir, 1941-1950 yillarda O'zbekiston davlat nashriyotida bo'lim mudiri, 1950-1953 yillarda "Saodat" jurnalida bo'lim mudiri, 1953-1980 yillarda mazkur jurnalda bosh muharrir bo'lib ishlagan.

Ikkinci Jahon urushi boshlanganda, Zulfiya ham ijodkorlar do'stlari safida turib urushning birinchi oylaridayoq biri otasini, biri o'g'lini, biri og'anisini, biri sevimli yorini frontga kuzatib, ular o'rniда kunni tunga ulab mehnat qilayotgan o'zbek ayollarining lirik obrazini yaratishga kirishadi. Shoiraning 1942-yil kuzida yozilgan „Hijron“ sarlavhali she'rida hijronning achchiq damlarida orzu-umidini so'ndirmagan yosh kelin obrazini ko'rish mumkin:

...Yorim, sevar yorim jo'nadi jangga,  
Mening yuragimga tushdi hijron-dog'.  
Men sevgan dildorningsevgan yurti bor,  
Ishq doim erk uchun hijronga rozi.  
Bu hijron mangumas, visoli ham bor –

Qahraton qishlarning bo'lganday yozi.

1943 yilda "Uni Farhod derdilar", 1944 yilda "Hijron kunlarida" nomli to'plamlari nashr etiladi. To'plamdagagi she'rlar vatanga muhabbat, dushmanha nafrat va g'alabaga ishonch ruhida yaratilganligi bilan xarakterlidir. Zulfiyaning «Mening Vatanim», «Qo'limda qurolu ustimda shinel», «Bizni kut» kabi umidbaux shे'rlari urush davri o'zbek she'riyatining jangovar ruhini ifodalovchi asarlar qatoridan o'rinni organ.

1944 yil Hamid Olimjon vafotidan so'ng shoira turmush o'togi xotirasiga bag'ishlab "Hayot jilos", "O'rik gullaganda", "Xayollar", "Sog'inish" kabi she'riy to'plamlar yaratadi. Zulfiyaning 1947-yilda yozilgan „Bahor keldi seni so'roqlab“ she'ri insoniy muhabbatni haqqoniy tasvirlovchi badiiy pishiqliq, ta'sir kuchi g'oyat o'tkir she'r bo'lib, bahor kechalarida lirik qahramonning bedor qalbini qiynatotgan hijron nidosidir. 1950-yillarning yarmida Zulfiya Osiyo va Afrika yozuvchilarining tinchlik va xalqaro birdamlik shiori ostida o'tgan harakatida faol qatnashib, ko'plab mamlakatlarda bo'ladi. Hindiston, Misr, Yaponiya kabi mamlakatlari qilgan sayohati shoirada chuqur iz qoldiradi. "Mushoira", "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush", "Qozog'iston o'lanlari", "Men chizolmagan surat" singari she'rlari Zulfiyaning shuhrat keltirdi.

Shoiraning urushdan so'nggi 1948 yillarda yozilgan «Dalada bir kun», 1953 yildagi «Tong qo'shig'i» kabi bir qator sherlar turkumi, «Men tongni kutaman», 1958 yilda yozilgan «Yuragimga yaqin kishilar», 1965 yilda yaratilgan «Kujlarim sizga» to'plamlarida Vatan madhi, mehnat jarayonida fidokorlik ko'rsatayotgan kishilar hayoti jo'shqin kujlangan. Uning 1953 yilda «Oydin», 1960 yildagi «So'roqlaydi shoirni she'rim», 1967 yilda «Quyoshli qalam» kabi yaratilgan ocherk va dostonlari Hamza Hakimzoda, Oybek, Oydin, Hamid Olimjon kabi ustodlarning yorqin xotiralari bag'ishlangan, bundan tashqari Hamid Olimjonning «Semurg», «Zaynab va Omon» dostonlari asosida p'esa va operasiga librettosini ham yaratgan.

Shoira Hindiston, Jugoslaviya, Shri Lanka, Misr, Birma, Avstriya kabi mamlakatlarda bo'ladi. 1956 yilda Osiyo va Afrika yozuvchilarining Dehlida o'tkazilgan birinchi konferenciyasida qatnashib, 1958 yilda mashhur «Mushoira» asarini yaratadi.

Zulfiya 1968 yilda hind mavzuidagi she'rlari uchun Xalqaro Javoharla'l Neru, 1970 yilda «Uylar», «Shalola» kabi she'riy majmualari uchun Hamza nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureate, 1971 yilda tinchlik va do'stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyatparvar Osiyo va Afrika yozuvchilarini harakatidagi faol ishtiroki uchun xalqaro «Nilufar» mukofoti, shuningdek, 1972 yilda Bolgariyaning «Kirill va Mefodiy» ordeniga sazovor bo'lgan buyuk o'zbek shoirasidir.

# *«Development of science» international conference*

Men o'tgan umrimga achinmay qo'ydim...  
Hayot kitobimni bexos varaqlab,  
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim.  
Tabassum o'rnida kuldim charaqlab,  
Suyish kerak bo'lsa — telbacha suydim.  
Kiyganim ipakmi, chitmi yo kimxob,  
Yurak boyligidan qilmabman parvo.  
Meni og'ushlagan hayot naq oftob,  
Yangi qo'shiq talab unda har saboh.  
Men o'tgan umrga achinmay qo'ydim,  
Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash:  
Suydim,  
Erkalandim,  
Ayrildim,  
Kuydim,  
Izzat nima — bildim.  
Shu-da bir yashash!..

2017 yilning 3-noyabr kuni Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan atoqli va iste'dodli shoirlar Hamid Olimjon va Zulfiyaning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Jizzax shahridagi 1902-yilda qurilgan "Xo'ja Nuriddin" madrasasi qayta rekonstruksiya qilinib, Hamid Olimjon va Zulfiya muzeyi, Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi yaratilgan. Shuningdek, Hamid Olimjon va Zulfiya hayotiga bag'ishlab O'zbekiston Kinematografiya agentligining buyurtmasiga asosida 2022-yilda "Muhabbat bahori" badiiy filmi suratga olinib, shoira obrazini aktrisa Shahnoza Hojimurodova, Hamid Olimjon obrazini esa aktyor Hamza Hasanov gavdalantirgan.

1999-yil 10-iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida" farmoniga binoan Zulfiya nomidagi davlat mukofoti haqida O'zbekiston Respublikasining Davlat mukofoti ta'sis etilgan. Zulfiya nomidagi davlat mukofoti 25 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarga adabiyot, madaniyat, san'at, fan, ta'lim sohalaridagi alohida yutuqlari uchun beriladi. Zulfiyaning oljanoblik, jasorat, haqqoniyligini xalq g'ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiyligi tuyg'ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Men Zulfiyaxonimdek shoira, journalist, tarjimon, davlat arbobi bilan bir Vatanda tug'ilib o'sganim va yashayotganligimdan faxrlanam.

**MEN ZULFIYAXON IZDOSHIMAN!!!**

Foydalanilgan internet manzillari:

1. <https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/zulfiya-1915-1996/>
2. <https://oz.sputniknews.uz/20240222/zelenskiy-aqsh-yordam-b-reja-42627383.html>
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/zamonaviy-ozbek-she-riyati/zulfiya-1915-1996>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Zulfiya>